

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/30.04.2022.Fil.20.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI**

**NURILLAYEV XAMZA QUDAIBERGENOVICH**

**INGLIZ VA QORAQALPOQ TILLARIDAGI SOMATIK  
FRAZEMALARNING LINGVOMADANIY TAHLILI**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik**

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Nukus– 2025**

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)  
on philological sciences**

**Nurillayev Xamza Qudaibergenovich**

Ingliz va qoraqalpoq tillaridagi somatik frazemalarning lingvomadaniy tahlili ..... 3

**Нурыллаев Хамза Кудайбергенович**

Лингвокультурологический анализ соматических фразем в английском и каракалпакском языках..... 23

**Nurillaev Khamza Kudaybergenovich**

Linguacultural analysis of somatic phrasemes in the English and Karakalpak languages..... 47

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ

List of published works..... 51

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/30.04.2022.Fil.20.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI**

**NURILLAYEV XAMZA QUDAIBERGENOVICH**

**INGLIZ VA QORAQALPOQ TILLARIDAGI SOMATIK  
FRAZEMALARNING LINGVOMADANIY TAHLILI**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik**

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Nukus– 2025**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.3.PhD/Fil1986 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Qoraqalpoq davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida ([www.karsu.uz](http://www.karsu.uz)) va «ZiyoNet» Axborot ta'lif portalida ([www.zivonet.uz](http://www.zivonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Abdinazimov Shamshetdin Najimovich**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Kdirbayeva Gulzira Kurbanbayevna**  
filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

**Bekbergenov Qidirbay Ayjarikovich**  
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Urganch davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Qoraqalpoq davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.04.2022.Fil.20.07 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil «8 » aprel kuni soat 9:00 dagi majlisida bo'ldi (Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko'chasi, 1-uy. Tel.: (99861) 223-59-25; faks: (99861) 223-59-25, e-mail: [karsu\\_info@edu.uz](mailto:karsu_info@edu.uz)).

Dissertatsiya bilan Qoraqalpoq davlat universiteti Axborot resurs markazida tanishish mumkin (173 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko'chasi, 1-uy. Tel.: (99861) 223-59-25.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil 17 » mart kuni tarqatildi.  
(2025-yil «8 » aprel dagi № 7 raqamli reestr bayonnomasi).

  
**M.S.Kudaybergenov**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,  
filologiya fanlari doktori, professor

**J.E.Seytjanov**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy  
kotibi, filologiya fanlari nomzodi, professor

**G.A.Kurbaniyazov**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi,  
filologiya fanlari doktori, professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertasiya mavzusining dolzarbliji va zarurati.** Jahon tilshunosligida frazeologiya bilan bog‘liq turli bahsli masalalarni tizimli o‘rganish bo‘yicha keng ko‘lamli tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ayniqsa, frazeologizmlarning somatik-struktur xususiyatlarini aniqlash maqsadida salmoqli tadqiqotlar yaratilmoqda. Frazeologizmlarni faqat til birligi nuqtayi nazaridan o‘rganish uning tabiatini to‘liq oshib bermaydi, binobarin, bunday yondashuvda frazeologizmlarda aks ettirilgan millatning o‘ziga xos milliy-mental xususiyatlari, xalqning hayotiy tajribasi, jamiyatdagi insonlarning o‘zaro munosabatlari, etnosning ma’naviy va madaniy boyligi hamda ekstralengvistik omillar ta’siri e’tibordan chetda qoladi. Lisoniy birliklarni ekstralengvistik omillar, shuningdek, boshqa tillar bilan qiyoslab o‘rganish zamonaviy tilshunoslikdagi ahamiyatli masalalardan biri hisoblanadi hamda frazeologizmlarni mazkur nuqtayi nazardan o‘rganish yangi ilmiy-nazariy xulosalar chiqarish imkonini bermoqda.

Dunyo tilshunosligida turli til oilalariga mansub, genetik jihatdan qarindosh bo‘lmagan tillardagi frazeologizmlarni chog‘ishtirib o‘rganishga katta e’tibor qaratilmoqda. Ingliz va qoraqalpoq tillari kabi farqli strukturalardagi bir-biriga qarindosh bo‘lmagan tillarning frazeologik tizimlarini qiyosiy tahlil qilish katta qiziqish uyg‘otadi, zotan, frazeologik birikmalar o‘sha tilda so‘zlovchi xalqning milliy madaniyatini, dunyoqarashini, alohida olingan xalq madaniyatini va lisoniy hamjamiyatlarining mentalitetini o‘zida aks ettirmoqda. Tilshunoslikda frazeologizmlarning semantikasi va grammatik xususiyatlarini o‘rganish, frazeologik tizimlarni qiyosiy tahlil qilish, shu bilan birga semantikani shakllantiruvchi moddiy manbalarini aniqlash katta ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotimizning obyekti hisoblangan somatik komponentli frazeologizmlar (keyingi o‘rinlarda SF deb qisqartiriladi) ingliz va qoraqalpoq tillari frazeologiyasida katta guruhni tashkil qilmoqda. Bu, birinchi navbatda, somatizm bilan bog‘liq bo‘lgan ma’lumotlar maydonining insoniyat hayotidagi ahamiyatini ko‘rsatadi.

Mamlakatimiz istiqlolga erishganidan keyin milliy madaniyatimiz, ona tilimiz rivojlana boshladi, ularga alohida davlat siyosati darajasida e’tibor qaratilmoqda. Xalqning moddiy va ma’naviy madaniyatni, folklori va urf-odatlarini saqlab qolish, ularni har tomonlama chuqur o‘rganish uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Darhaqiqat, “milliy o‘zligimiz va mustaqil davlatchiligimiz timsoli, bebafo ma’naviy boylik, ulug‘ qadriyat... millat ma’naviyatining mustahkam poydevori”<sup>1</sup> hisoblanadigan ona tilimizni chuqur va har tomonlama o‘rganish ahamiyatli vazifalardan biri hisoblanadi. Tilshunoslik, asosan chog‘ishtirma tilshunoslik bo‘yicha izlanishlar ham bir tilni o‘zlashtirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Mavzuga doir frasemalar, qoraqalpoq tilidagi tadqiqotlarda leksik-semantik maydon nazdida urganimaganligi va lingvomadaniy xususiyatlarining to‘liq tadqiq qilinmaganligi dissertatsiyaning dolzarbligini isbotladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-sonli “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-

<sup>1</sup> Мирзиёев Ш.М. Миллий ўзлигимиз ва мустақил давлатчилигимиз тимсоли // Халқ сўзи. – Тошкент, 2019 йил, 22-сентябр. - №218 (7448). – б. 1-2

tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-sonli “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarini o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5117-son qarori, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Joqarg‘i Kengesi Rayyosatining 2019-yil 16-oktabrdagi 584-son “Davlat tili haqida”gi Qoraqalpog‘iston Respublikasining Qonuni qabul qilinganligining 30 yilligiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazishni tashkillashtirish chora-tadbirlari haqida”gi, 2020-yil 3-noyabrdagi 135-son “Qoraqalpoq tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari va sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi ma’lum darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Dunyo tilshunosligida, shuningdek, rus va ingliz tilshunosligida frazeologizmlar Sh.Balli, L.P.Smit, F.O.Vakk, N.N.Amosova, A.V.Kunin, N.F.Alefierenko, V.I.Zimin, A.P.Vasilienko, G.N.Fedulenkova, D.U.Dobrovolskiy, A.M.Melerovich, V.M.Mokienko, V.N.Teliya, N.N.Semenenkolar tomonidan chuqur tadqiq qilingan.<sup>2</sup>

Turkiy tillarda frazeologizm masalalari Sh.Rahmatullayev, S.Kengesbayev, B.Yo‘ldoshev, A.E.Mamatov, X.Qojaxmetova, R.A.Yusupov, G.Smag‘ulova, K.Bazarbayev, M.X.Extamov, Sh.Osmanova va boshqalar tomonidan o‘rganilgan.<sup>3</sup>

Qoraqalpoq tilshunosligida frazeologiya masalalari S.G.Naurizbayeva, Sh.Yeshbayev, E.Berdimuratov, Sh.Abdinazimov, G.Aynazarova, G.Allambergenova, A.Pirniyazova, B.Yusupova, J.Tanirbergenov, B.Bekniyazov

<sup>2</sup> Балли Ш. Французская стилистика. 2-е изд.-М.: Эдиториал УРСС, 2001, - 392 с; Смит Л.П. Фразеология английского языка. – М.: 1959. Вакк Ф. О соматической фразеологии в современном эстонском литературном языке: Автореф. дис. канд. филол. наук. – Таллин, 1964. 23 с; Амосова Н.Н. Основа английской фразеологии. – Л.: Ленинградский университет, 1963. – 208 с; Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка. – М.: Высшая школа, Дубна: Феникс, 1996. – 381 с; Современная фразеология: тенденции и инновации; Алефиренко Н.Ф., Зимин В.И., Василенко А.П., Федуленкова Г.Н., Добровольский Д.У., Мелерович А.М., Мокиенко В.М. – М.: СМб, - Брянск: Новый проект. 2016. – 200 с; Телия В.Н. Русская фразеология: Семантический, прагматический и лингво – культурологический аспекты. – М.: Школа “Языки русской культуры”. – 1996, - 288 с; Алефиренко Н.Ф., Семененко Н.Н. Фразеология и паремиология. – М.: Флинта, Наука, 2009. – 344 с.

<sup>3</sup> Рахматуллаев Ш. Ўзбек фразеологиясининг баъзи масалалари (фразеологик бирликларда полисемия, синонимия, вариация, антонимия, омонимия) – Т.: ФАН, 1966; Кенесбаев С. К вопросу от экспрессивно – стилистических функциях фразеологизмов // В кн: Развитие стилистических систем литературных языков народов СССР. – Ашхабад, 1968., Йўлдошев Б. Фразеологик услубнинг асослари. – Самарқанд, 1998; Маматов А.Э. Проблемы лексико-фразеологической нормы в современном узбекском литературном языке: Автореф. дис. ... докт.филол.наук. – Ташкент, 1991; Х. Кожахметова Фразеологизмдердин көркем эдебиетте қолданылыуы. – Алматы: Мектеп, 1972; Р.А. Юсупов. Лексико-фразеологические средства русского и татарского языка. – Казань; Татар. Кн. изд-во, 1980; Г. Смағұлова Мағыналас фразеологизмдердин ұлттық – мәдени аспекттілері Фил. ғыл. ...докт. дисс. автореф. – Алматы, 1998; К. Бозорбоев. Ўзбек тилида сўзлашув нутки фразеологизмлари: Филол. фан. ном. ...дис. автореф. – Самарқанд, 2001; М.Х. Эхтэмов. Ҳазәрги башкорт теле. Лексикология, фразеология, лексикография. – Өфө, 2002; Ж. Осмонова. Қыргыз тилинин фразеологиясы. – Каракөл: Б-сыз, 2007.

tadqiqotlarida atroficha o‘rganilgan.<sup>4</sup>

Frazeologik birliklarning lingvomadaniyatshunoslik, pragmatik va kognitiv xususiyatlarini qiyosiy aspektda qoraqalpoq olimlaridan G.K.Kdirbaeva, N.M.Jalg‘asov, G.A.Usenova, R.A.Jumamuratova, A.A.Xudaybergenov, S.P.Saparov, Z.B.Sagatova, A.N.Sadullaeva va S.A.Arzimbetovalar o‘z tadqiqotlarida o‘rgangan.<sup>5</sup>

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliv ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalarini bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya ishi Qoraqalpoq davlat universiteti ilmiy-tadqiqot rejalariga muvofiq “Qiyosiy tilshunoslik, tarjimashunoslik va adabiyotshunoslik masalalari” mavzusidagi ilmiy-tadqiqot rejasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** ingliz va qoraqalpoq tillaridagi somatik komponentli frazeologizmlarning lingvomadaniy xususiyatlarini tahlil qilish.

**Tadqiqotning vazifalari** quyidagilardan iborat:

ingliz va qoraqalpoq tillaridagi SFning lingvomadaniyatshunoslik sohasidagi tadqiq qilinish darajasini aniqlash;

qiyoslanilayotgan tillardagi SFning semantik va konseptual maydonlarini o‘rganish;

ingliz va qoraqalpoq tillaridagi SFning tarkibidagi komponentlarning qo‘llanish chastotasini tadqiq qilish;

SFning mavzuviy va leksik-grammatik guruhlarini shakllantirish;

somatik frazeologizmlarning tadqiq qilinayotgan tillardagi lingvomadaniy xususiyatlarining tavsifini ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida ingliz va qoraqalpoq tillaridagi somatik frazeologizmlar tanlangan.

**Tadqiqotning predmeti** ingliz va qoraqalpoq tillaridagi frazeologik

<sup>4</sup> Бердимуратов Е. Ҳәзирги қаракалпак тили. Лексикология. – Нөкис: Билим, 1994; Наурызбаева С.Т. Типы именных фразеологических единиц каракалпакского языка и их отражения в каракалпакско-русском словаре: Автореф. дис. ... канд. фил.наук, - М. 1967; Ешбаев Ж. Каракалпақ тилинин қысқаша фразеологиялық сөзлиги. – Нөкис, 1985; Абдиназимов Ш. ҳ.т.б. Қазақ және қаракалпақ тиллеринин салыстырмалы паремиологиялық сөзлиги. – Астана, 2022; Айназарова Г. Симметрические двух компонентные фразеологизмы в каракалпакском языке: Автореф. дис. ... канд. фил. наук. – Нукус, 2000; Алламбергенова Г.И.Юсупов асарларида фразеологизмларнинг услугий кулланиши: Филол. фан. бўйича фалс. докт (PhD) дис. автореф. – Нукус, 2019; Пирниязова А.К. Қорақалпоқ тили фразеологик системаси ва унинг стилистик имкониятлари: Фил. фан.докт (DSc) дис. автореф. – Нукус, 2020; Юсупова Б.Т. Қорақалпоқ тилидаги фразеологизмларнинг фоностилистик таҳлили. Фил. фан. докт (DSc) дис. автореф. – Нукус, 2022; Танирбергенов.Ж.О. Қорақалпоқ тилида феъл фразеологизмларнинг лингвистик таҳлили Фил. фан. фалс. докт (PhD) ... дис. автореф. – Нукус, 2020; Бекниязов Б.К. Қорақалпоғистон-қозоқлари тилидаги соматик фразеологизмларнинг лингвомаданий таҳлили. Филол. фанл. бўйича фалс. докт. (PhD)... дисс. Автореферати.- Нукус. 2021.

<sup>5</sup> Kdirbaeva G.K. “Man” – “adam” kontseptosferasi birliklarining lingvomadaniy va lingvokognitiv xususiyatlari (ingliz va qoraqalpoq tillari misolida): Filol.fan.nom...diss. avtoreferati. – Toshkent, 2017.-46 б.; Жалғасов Н.М. Провербиал тузилмаларда инсонни баҳолашнинг pragmatik ва инсоний-маданий хусусиятлари (инглиз, ўзбек ва қаракалпоқ тиллари мисолида) Филол.фан...дисс.автoreferati.-Самарқанд, 2020. -59 б; Усенова Г.А. «Mather/Ана» концепти идентификаторларининг лингвомаданий хусусиятлари (инглиз ва қорақалпоқ тиллари мисолида): Filol.fan... diss. avtoreferati, -Нукус, 2021.-50 б; Жумамуратова Р.А. Қорақалпоқ ва инглиз тилларидаги лексик-фразеологик лакуналар тадқиқи Филол.фан...дисс.автoreferati. (PhD) Нукус-2021. -44 б.; Худайбергенов А.А. Маданиятлараро мулокотда инсон характерини ифодаловчи фразеологик бирликларнинг ўзига хос хусусиятлари (инглиз ва қорақалпоқ тиллари мисолида) Filol.fan... diss. avtoreferati, -Нукус, 2022.-58 б; Сапаров С.П. Компаратив адъектив иборалар шаклланишининг концептуал асоси ва уларнинг дискурсив хусусиятлари (инглиз ва қаракалпоқ тиллари мисолида) Филол.фан...дисс.автoreferati.-Нукус, 2023. -66 б; Sagatova Z.B. Ingliz va qoraqalpoq tillarida zoonim komponentli frazeologik birliklar: Antropotsentrik nuqtayi nazar Filol.fan... diss. avtoreferati (PhD) Urganch-2023. -56 б.; Sadullaeva A.N. “Love/muhabbat” konseptining lingvomadaniy xususiyatlari (ingliz va qoraqalpoq tillari misolida) Filol.fan... diss. avtoreferati (PhD) Nukus-2024. -56 б.; Арзымбетова С.А. “Инглиз ва қорақалпоқ олам лисоний миллий манзарасида “head/bas” компонентли фразеологик бирликлар”. Fil.fanlari.bo'yisha falsafa doktori (PhD) avtoreferati. Nukus-2024. -54 б.

birliklarining semantik hamda struktur-grammatik xususiyatlari, ushbu tillarning frazeologik qatlamicidagi tizimli aloqalari, qiyoslanayotgan tillardagi lingvomadaniy o'ziga xosliklarning barcha til sathlaridagi namoyon bo'lishi hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada, asosan chog'ishtirma (kontrastiv) metod, leksik-semantik, struktur-semantik, tavsiflash, konseptual tahlil, lingvomadaniy tahlil va statistik usullar qo'llanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

milliy urf-odat va an'analarni aks ettiruvchi somatik frazeologik birliklarning lingvomadaniy xususiyatlarini o'rganish orqali ingliz va qoraqalpoq xalqlari mentalitetini chuqur anglash mumkinligi isbotlangan;

ingliz va qoraqalpoq tillaridagi somatik frazemalarni alohida tadqiq qilish orqali ularning umumiy (insonning asosiy ehtiyojlari, his-tuyg'ulari va harakatlari) va farqli belgilari (madaniy, tarixiy, tarkibiy, qo'llanish jadalligi, assotsiativ ma'nolari) lingvomadaniy aspektida qiyosiy aniqlangan;

ingliz va qoraqalpoq tillaridagi somatik frazeologik birliklarning leksik, strukturaviy va grammatik turlari asoslab berilgan, bunda ularning mazmuni, shakli va lingvistik xususiyatlari dalillangan;

tilshunoslik, lingvomadaniyatshunoslik va kognitiv lingvistika aspektlarining integratsiyasi, fanlararo aloqasidan foydalanib, somatik frazeologik birliklar fenomeni hamda ularning barcha til sathlaridagi o'rni har tomonlama ohib berilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

ingliz va qoraqalpoq tillaridagi SFning semantik va konseptual maydonlari o'rganilib chiqilgan;

ingliz va qoraqalpoq tillaridagi SFning mavzuviy hamda leksik-grammatik guruhlari shakllantirilgan;

somatik frazeologizmlarning tadqiq qilinayotgan tillardagi lingvomadaniy xususiyatlari tavsifi ishlab chiqilib, ularning matnlarda faollashuvi misollar orqali dalillangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** zamonaviy tilshunoslikda qo'llanilgan tadqiq usullarining maqsadga muvofiqligi hamda ularda foydalanilgan nazariy ma'lumotlarning ishonchliligi, ilmiy muammoning aniq qo'yilganligi, to'plangan materiallar tahlilining ilmiy-metodik jihatdan asoslanilganligi, bildirilgan nazariy xulosa va tavsiyalarning amliyotga joriy etilganligi, tadqiq qilingan materiallarning ishonchli manbalardan olinganligi, tadqiqot natijalarining miqdor va sifat jihatdan ta'minlanilganligi, olingan ilmiy natijalarning tegishli muassasalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan dalillanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati amalga oshirilgan tahlil asosida olingan natijalardan foydalanish frazeologiya tizimining alohida qatlamlarini, shu jumladan, chog'ishtirma tilshunoslik va lingvomadaniyatshunoslik nuqtayi nazaridan tadqiq qilishni rivojlantirish uchun imkoniyat yaratishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ish materiallaridan ingliz va qoraqalpoq tillarini chog'ishtirib o'rganishda, frazeologiya bo'yicha maxsus kurslar tashkil qilishda nazariy manba sifatida, tarjima amliyotida, talabalar uchun qiyosiy tipologiya bo'yicha darsliklar yaratishda, shu bilan birga, ikki tilli lug'atlarni

tuzishda foydalanilish mumkunligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Ingliz va qoraqalpoq tillaridagi somatik frazeologizmlarning lingvomadaniy talqini bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalari asosida:

milliy urf-odat va an'analarni aks ettiruvchi somatik frazeologik birliklarning lingvomadaniy xususiyatlarini o'rganish orqali ingliz va qoraqalpoq xalqlari mentalitetini chuqur anglash mumkinligi haqidagi xulosalar 2017–2020-yillarda amalga oshirilgan "FA-F1-OO5 "Qoraqalpoq folklori va adabiyotshunosligi tarixini tadqiq qilish" mavzusidagi fundamental loyihada foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutining 2024-yil 4-oktabrdagi 455/1-son ma'lumotnomasi). Natijada, loyiha mazmuni kengaytirilgan, nazariy kurs va amaliy mashqlar, maxsus seminarlarini tashkil qilish imkoniyati yaratilgan;

ingliz va qoraqalpoq tillaridagi somatik frazemalarni alohida tadqiq qilish orqali ularning umumiy va farqli belgilari lingvomadaniy aspektida qiyosiy o'rganish hamda tilshunoslik, lingvomadaniyatshunoslik, kognitiv lingvistik aspektlarining integratsiyasi, fanlararo aloqasidan foydalanib, somatik frazeologik birliklar fenomeni va ularning barcha til sathlaridagi o'mni bilan bog'liq natijalaridan Qoraqalpog'iston teleradiokanalining "Til bayligi – el bayligi" ko'rsatuv hamda Qoraqalpog'iston radiokanalining "Tilge itibar – elge itibar" eshittirishlarida foydalanilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi Teleradiokompaniyasining 2024-yil 30-sentabrdagi 05-22/423-son ma'lumotnomasi). Natijada, frazeologik birliklarning lingvomadaniy aspektidagi umumiy va o'ziga xos xususiyatlari bo'yicha ilmiy-amaliy xulosalar chiqarish imkoniyati yaratilgan;

ingliz va qoraqalpoq tillaridagi somatik frazeologik birliklarning leksik, strukturaviy va grammatic turlari, ularning mazmuni, shakli va lingvistik xususiyatlari haqidagi xulosalardan "Qoraqalpog'iston tarixi va madaniyati" muzeyi faoliyatida foydalanilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi tarixi va madaniyati muzeyining 2024-yil 30-sentabrdagi 270-son ma'lumotnomasi). Natijada, muzey eksponatlarining ta'riflari ingliz va qoraqalpoq tillaridagi milliy tilga xos indikatorlar bilan boyitildi, shu bilan birga o'tkaziladigan ekskursiya ssenariylarining matnlarini yangi ma'lumotlar bilan boyitilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 7 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda, jumladan 4 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 17 ilmiy ish nashr etilgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy xulosalarni nashr qilish tavsiya qilingan xorijiy nashrlarda 1 maqola, mahalliy respublika jurnallarida 7 va boshqa xorijiy va mahalliy nashrlarda 2 maqola joriy qilingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uchta asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan bo'lib, ishning umumiy hajmi 120 sahifadan iborat.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Dissertatsiyaning kirish qismida** mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar yoritilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “**Frazeologizmlarni lingvomadaniy tadqiq qilishning nazariy asoslari**” deb nomlanadi. Ushbu bobda lingvomadaniyatshunoslik aspektida somatik frazeologizmlarning nazariy tavsifi, somatik frazeologizmlarning milliy-madaniy hodisa sifatida o‘rganilishi hamda ingliz va qoraqalpoq tillarida somatik frazeologizmlarning semantik va konseptual maydoni singari masalalar o‘rganilgan.

Dunyo tilshunosligida frazeologiya nazariyasining asoslarini ishlab chiqqan fransuz tilshunosi Sharl Balli so‘z birikmalarini birinchilardan bo‘lib tasniflab, ularning to‘rt turini ajratib ko‘rsatadi: 1) qo‘shma so‘zlar; 2) erkin so‘z birikmalar; 3) frazeologik birliklar va 4) frazeologik birikmalar.

Ingliz frazeologiyasi nazariyasining rivojlanishida L.P.Smitning tadqiqotlari ham muhim ahamiyatga ega. U leksik idiomalarga, dastlab ekspressiv xarakterdagi lug‘aviy birliklarni o‘z ichiga oladigan so‘zlarga alohida e’tibor qaratadi. Tilshunos frazeologizmlarning tuzilishini o‘rgangan, ammo undan boshqa ayni darajadagi zarur masalalar, jumladan, semantik-struktur tipologiyasi, frazeologizmlarning semantikasi muallifning e’tiboridan chetda qolgan. Idioma nutqning markazi, bir-biri bilan chambarchas aloqada bo‘lgan birliklar hisoblanadi. Birinchi guruhning manbasi inson tanasidan boshqa narsa emas. Tananing deyarli barcha a’zolarining va ko‘plab ichki organlarining nomlari son-sanoqsiz ekspressiv idiomalar hamda yaqqol metaforalar bilan o‘rab olingan.<sup>6</sup>

Sh.Ballidan keyin ispan tilshunosi X.Kasares frazeologiya masalalariga e’tibor qaratib, frazeologik so‘z birikmalarining uch turini ajratadi: 1) nominal so‘z birikmalar; 2) fe’l konstruksiyalari va 3) maqol-matallar. Olim maqol-matallar frazeologik birliklarning bir turi sifatida o‘rganilish kerak deb hisoblagan. Ushbu nuqtayi nazar e’tiborga molik hamda ma’lum bir tilning frazeologik so‘z birikmalarini o‘rganishda qo‘llanilishi mumkin edi.<sup>7</sup>

Ingliz tilshunosi O.Yesperson so‘zlarning barqaror birikishi muammosiga e’tibor qaratadi. U barcha lisoniy birikmalarni erkin konstruksiya va formulalarga ajratadi.<sup>8</sup>

Frazeologik so‘z birikmalarini o‘rganishda A.V.Kunin salmoqli ilmiy tadqiqotlar yaratdi. A.V.Kuninning fikricha, “frazeologik so‘z birikmali - to‘liq yoki qisman qayta izohlangan ma’noga ega bo‘lgan leksemalarning barqaror birikmasi”. A.V.Kunin va N.N.Amosovalarning tadqiqotlari natijasida frazeologiya lingvistikidan alohida sohasiga aylandi. A.V.Kunin tuzgan “English-

<sup>6</sup> Смит Л.П. Фразеология английского языка. – М.: 1959.

<sup>7</sup> Касарес Х. Введение в современную лексикографию. – М.: Изд-во ин.лит-ры, 1958.

<sup>8</sup> Есперсон О. Философия грамматики (пер. с англ. В.В. Пассека и С.П. Сафрановой). – М.: УРСС, 2002.

“Russian Phraseological Dictionary” lug‘ati olimning o‘zi ta’kidlab o‘tganidek, “50 yillik to‘plam va frazeologik birikmalarini tizimlashtirish natijasi” hisoblanadi.<sup>9</sup>

German tillari materiallari bo‘yicha frazeologizmlarni struktur va tipologik tahlil qilish tamoyillari D.O.Dobrovolskiy tomonidan o‘rganilgan. Olim german tillari materiallari asosida struktur-tipologiya yuzasidan tadqiqotlar olib boradi va til ko‘rinishlari hamda uning frazeologik qonuniyatları o‘rtasidagi aloqani ochib beradi.<sup>10</sup>

Frazeologiya masalalarini o‘rgangan tilshunos A.I.Smirnitskiy frazeologik so‘z birikmasi tushunchasini kiritgan. Uning tadqiqotlari natijasida frazeologik so‘z birikmalarining bir komponentli, ikki komponentli va ko‘p komponentli, ya’ni bir erkin so‘z va ko‘makchi so‘z yoxud ikki yoki undan ortiq so‘zlardan tuzilgan birikmalar aniqlandi. Turkiy tilshunoslik tarixida frazeologiya atamasini turli xil tushuntirish va tushunish holatlari uchraydi. Ularning umumiy mazmuni ikki nuqtayi nazarga to‘g‘ri keladi. Birinchisi, frazeologizmlarni keng ma’noda tushunish bo‘lib, dastlab V.V.Vinogradovning ishlarida ko‘rsatiladi va undan keyin S.K.Kenesbaev, S.N.Muratov ishlarida izohlangan.<sup>11</sup> Bu olimlar frazeologiyaning predmetiga barqaror fe’l birikmalarini (maqol va matallar, idiomatik va idiomatik bo‘lmagan so‘z birikmalarini, so‘zlarining barqaror frazeologik guruhlari, juft so‘zlar) kompleksini kiritadilar.

Ushbu masalaga boshqacha munosabatda bo‘lgan olimlar (Z.G.Uraksin, G.A.Bayramov, A.A.Yuldashev, Sh.U.Raxmatullayev, A.F.Chernov, G.X.Axuniyazov) va hokazolar frazeologizmlar tushunchasini tor ma’noda tushunadilar. Frazeologiya obyekti faqat frazeologik birikmalar va frazeologik birliklar deb ataladigan barqaror so‘z birikmalarini o‘z ichiga oladi.

Somatik frazeologizmlarning qiyosiy tadqiq qilinishi M.A.Averin va E.I.Boldirevlar tomonidan olib borilgan. Ular o‘z tadqiqotlarida ingliz va rus tillaridagi “голова/head, лицо/face (составные части – нос/nose, глаз/eye, пот/mouth, ухо/ear), рука/hand, нога/foot” kabi tana a’zolarni o‘rganishgan. Tilshunoslardan o‘z tadqiqotlarida o‘rganilayotgan tillarda inson tanasining tashqi qismlari “голова/head, лицо/face (и его составные части – нос/nose; глаз/eye; пот/mouth; ухо/ear), рука/hand; нога/foot” singari inson tana a’zolarining bir xil xususiyatlari va vazifalari bor ekanligini ta’kidlab o‘tadilar.<sup>12</sup>

Qoraqalpoq tilshunosligi tarixida frazeologiya masalalari maxsus tadqiq qilingan ishlardan biri S.Naurizbayeva<sup>13</sup> tomonidan amalga oshirildi. Tilshunos turkiy tillardagi ushbu sohaga doir tadqiqotlarni tavsiflab, frazeologiyaning leksikografiya obyekti sifatidagi o‘rni, ot frazeologizmlarning turg‘un, erkin so‘z

<sup>9</sup> Кунин А.В. Фразеология современного английского языка. – М.: Международные отношения, 1972. – Стр. 160.; Амосова Н.Н. Основа английской фразеологии. – Л., 1963; Кунин А.В. Английская фразеология (теоретический курс), - М, 1970; Курс фразеологии современного английского языка. – М.: Высшая школа, 1986.

<sup>10</sup> Добровольский Д.О. Основы структурно – типологического анализа фразеологии современных германских языков (на материале немецкого, английского и нидерландского языков) автореф. дис. д – ра филол. наук, - М, 1990

<sup>11</sup> Кенесбаев С.К. Қазақ тілінің фразеологиялық сөздігі. – Алматы.: Ғылым, 1977. – 712 б.; Муратов С.Н. Устойчивые словосочетания в тюркских языках. – М.: Изд-во восточной литературы. 1961. – 127 с.

<sup>12</sup> Аверина М.А., Болдырева Е.И. Синтаксическая организация фразеологизмов с соматическим компонентом в русском и английском языках / М.А. Аверина, Е.И. Болдырева //Проблемы современной науки. — 2013. — Т. 2, № 7. — С. 15—21.

<sup>13</sup> Наурузбаева С.Т. Фразеологические единицы в каракалпакско-русском словаре. – Ташкент: «Фан» Узбекской ССР, 1972. – 148 с.

birikmalari hamda boshqa leksik birliklardan (qo'shma so'zlar, juft so'zlar, maqol-matallar, idiomalar, qo'shma terminlar va h.) asosiy farqlari, ot frazeologizmlar tarkibidagi semantik hodisalar (omonimiya, sinonimiya, variantlilik va h.), ot frazeologizmlarning eng asosiy farqlari, ularning belgilari, paydo bo'lishi, manbalari, struktur-semantik tiplari, ruscha-qoraqalpoqcha lug'atda berilish tamoyillari bo'yicha chuqur tahlil qiladi. Ishning eng asosiy yutuqlaridan biri shuki, dissertatsiyada ruscha-qoraqalpoqcha frazeologik lug'at beriladi. Mazkur jihatlariga ko'ra S.Naurizbayevaning ishi nafaqat leksika, frazeologiya sohalari uchun, balki leksikografiya nuqtayi nazaridan ham salmoqli o'ringa ega.

Shundan keyin frazeologik lug'atlar nashr etila boshlandi. J.Yeshbayev<sup>14</sup> tomonidan tuzilgan lug'atda frazeologizm haqida tushuncha berilib, ularning semantik bog'lanishi bo'yicha turlari, so'z turkumlariga munosabati, komponent tarkibi, maqol-matallar bilan o'xhash va farqli jihatlari, frazeologik variantlar hamda sinonimlar haqida tahlillar amalga oshiriladi hamda lug'atning tuzilish tartibi ko'rsatiladi. J.Yeshbayev "Bir qancha frazeologik birikmalarning asosiy komponenti ot, sifat, fe'l va taqlid so'zlarning juftlashishidan yasalib, birikmaning umumiy ma'nosini ularga bog'liq holda tuziladi" deb yozadi.

Keyinchalik T.Djumamuratovning<sup>15</sup> mакtab o'quvchilariga mo'ljallangan ruscha-qoraqalpoqcha frazeologik lug'ati, G.Bekbergenova va B.Shaniyazov<sup>16</sup> hammuallifligidagi uch tilli maqol-matallar va frazeologizmlar lug'ati, K.M.Koshanov<sup>17</sup> muallifligida hamda K.M.Koshanov, A.Umarov, G.B.Nurabayevalar tomonidan tuzilgan rus, qoraqalpoq tillaridagi frazeologik lug'atlar, jamoaviy mualliflar tuzgan inglizcha-qoraqalpoqcha idiomalar lug'ati<sup>18</sup>, S.Yesemuratovning to'rt tilli maqol-matallar va frazeologizmlar lug'ati<sup>19</sup>, Q.Paxratdinov va Q.Bekniyazovning<sup>20</sup> frazeologik lug'ati, A.Pirniyazova va Q.Sarsenbayevning<sup>21</sup> yakka yozuvchi asarlarining frazeologik lug'ati, Y.Iskenderovaning zoonimlar qatnashgan maqol-matallar lug'ati<sup>22</sup>, G.Aynazarovaning teng ikki komponentli frazeologizmlar lug'ati<sup>23</sup>, G.Aynazarova

<sup>14</sup> Ешбаев Ж. Қарақалпақ тилиниң қысқаша фразеологиялық сөзлиги. Нөкис: «Қарақалпақстан», 1985.

– 158 б.

<sup>15</sup> Джумамуратов Т. Русско-каракалпакский фразеологический словарь для школьников. Нукус: «Қарақалпакстан», 1985. – 204 с.

<sup>16</sup> Бекбергенова Г., Шаниязов Б. Қарақалпақ халық нақыл-мақаллары хэм олардын басқа (инглиз, орыс) тиллердеги сәйкесликлери. Нөкис: «Билим», 2000. – 20 б.; Бекбергенова Г. Қарақалпақ, рус хэм инглиз тиллеридеги фразеологиялық сөз дизбеклеринин мәнилилк сәйкесликлери. Нөкис: Бердақ атындағы ҚМУ, 2009. – 40 б.

<sup>17</sup> Кошанов К.М., Умаров А., Нурабаева Г.Б. Школьный фразеологический словарь русского языка. Пос. для учащихся 5-9-классов каракалпакской школы - Нукус: НГПИ им Ажинияза, 2011. – 46 б.; Кошанов К.М. Краткий русско-каракалпакский фразеологический словарь. Нукус: НГПИ им Ажинияза, 2012. – 47 б.

<sup>18</sup> English-Karakalpak idioms. - Нөкис: «Билим», 2014.

<sup>19</sup> Есемуратова С. Қарақалпақ нақыл-мақаллары хэм фразеологизмлеринин өзбекше-русша-инглизше варианtlары топлами. - Ташкент: Extremum press, 2011. – 68 б.

<sup>20</sup> Пахратдинов К., Бекниязов К. Қарақалпақ тилиндеги фразеологизмлер. Нөкис: «Билим», 2012. – 108 б.; Пахратдинов К., Бекниязов К. Қарақалпақ тилиниң фразеологизмлер сөзлиги. Нөкис: «Қарақалпақстан», 2018. – 160 б.

<sup>21</sup> Пирниязова А., Сәрсенбаев К. М. Нызанов шығармаларының фразеологизмлер сөзлиги. Нөкис: Әжинияз атындағы НМПИ, 2019. – 30 б

<sup>22</sup> Искендерова Е. Қарақалпақ тилиндеги нақыл-мақалларда зоонимлердин колланылыуы - Нөкис: «Билим», 2020. – 40 б.

<sup>23</sup> Айназарова Г. Қарақалпақ тилинде тенлес еки компонентли фразеологизмлер сөзлиги. Нөкис: Бердақ атындағы ҚМУ, 2020. – 88 б.

va G. Atabayevalarning<sup>24</sup> sonlar qatnashgan teng ikki komponentli frazeologizmlar lug‘ati yaratildi. Har bir lug‘atning ahamiyati, tutgan o‘rni, o‘ziga xos vazifalari, xususiyatlari mavjud. Masalan, Y. Iskenderovaning ishini frazeologik lug‘atlar qatorida keltirishimizning sababi shundaki, unda: “*awil aralas, qoy qoralas, basina baxit qusi qoniw, bir shoqip jeti qaraw//tort shoqip bir qaraw, birde biye, birde tuye, bir siyirdan eki teri aliw, botaday bozlaw, borige baylangan ilaqtay boliw, bulbil boliw// bulbilgoya boliw// bulbildey sayraw, egiz qoziday, eshkinin quyriqi kokane, tuyeni quyriqi jerge (jetkende), iyt iyesin, pishiq biykesin tanimaw, ingendey qayisip, botaday bozlaw, qoy ustinde torgay jumalaw, tayda tuyaq qalmay keliw, tulipqa monirew*” va boshqa shu kabi ko‘plab frazeologizmlarning joy olganligi hamda ularning ma’nolari, qo‘llanilishi izohlanilgan.

Keyingi davrlarda frazeologiya sohasida qiyosiy yo‘nalishdagi tadqiqotlar Sh. Abdullayev, G. Kdirbaeva, M. Babadjanov, N. Jalg‘asov, G. Usenovalar tomonidan amalga oshirildi.

G. Kdirbaeva<sup>25</sup> tomonidan yangi yo‘nalishdagi tadqiqotda e’tibor qaratilgan masalalardan biri – “man” – “odam” konseptosferasining turli tillarda paydo bo‘lishining o‘ziga xos xususiyatlarini ko‘rsatish, mazkur konseptosferaga oid birliklarni leksik-semantik, frazeologik va paremiologik birliklar tarkibida yuzaga keltiradigan qoidalar kompleksini aniqlash”dan iborat.

N. Jalgasovning ishida ingliz, o‘zbek va qoraqalpoq tillaridagi maqol-matallarda insonga beriladigan bahoning antroposentrik asosini, mazmunini ochib berish hamda uning usullari tahlil qilingan. Tadqiqotchi: “Qiyoslanilayotgan tillardagi maqol-matallarning katta qismi alliteratsiya (undosh tovushlarning takrorlanishi) fonetik-stilistik usuli asosida tuzilgan. Ana shunday tovush mosligi maqol-matallarni tez eslab qolish va xotirada qayta tiklash imkonini beradi: *Birds of feather flock together – Ko‘r ko‘rni qorong‘uda ham topadi; Bari hissa – bir hissa, Palapan basina, turimtay tusina – Hár kim ózinshe.*<sup>26</sup> Mazkur ishni frazeologiyaga bog‘lashimizning sababi shundaki, muallif misol sifatida ko‘rsatgan ayrim maqol-matallar teng ikki komponentli frazeologizm ko‘rinishida ham uchraydi.

G. A. Usenova esa, o‘zining “Mother/Ana” konsepti identifikatorlarining lisoniy-madaniy xususiyatlari (ingliz va qoraqalpoq tillari misolida)” mavzusidagi ilmiy ishida konseptning leksik, frazeologik va paremiologik bosqichlarida konseptual modelini tadqiq qilgan.<sup>27</sup>

Tilshunoslikdagi “maydon” tushunchasi “til hodisalarini intuitiv munosabat sifatida aks ettirishning tizimli-funksional usuli ko‘rnishida paydo bo‘ldi, u til birliklari guruhlarini tavsiflashda ajralmas bo‘lib, turli bosqichlarda tizimli yoki

<sup>24</sup> Айназарова Г., Атабаева Г. Қарақалпақ тилинде санлықлар менен келген фразеологизмлер сөзлиги. Нөкис: Бердак атындағы ҚМУ, 2021. – 48 б.

<sup>25</sup> Қдырбаева Г.К. «Ман» - «Адам» концептосфераси бирликларининг лингвомаданий ва лингвокогнитив хусусиятлари (инглиз ва қарақалпоқ тиллари мисолида) Филол. фанл. бўйича фалс. докт. (PhD)... дисс. автореферати. - Тошкент: 2017.8-бет.

<sup>26</sup> Жалғасов Н.М. Провербиял тузилмаларда инсонни баҳолашнинг прагматик ва лисоний-маданий хусусиятлари (инглиз, ўзбек ва қарақалпоқ тиллари мисолида). Филол. фанл. бўйича фалс. докт. (PhD)... дисс. автореферати. - Самарқанд: 2020.21-бет.

<sup>27</sup> Усенова Г.А. «Mother/Ана» концепти идентификаторларининг лисоний-маданий хусусиятлари (инглиз ва қарақалпоқ тиллари мисолида): Филол. фан. фалс. д-ри (PhD) ... дис. ... автореф. – Нукус, 2021. – 54 с.

oddiy guruh sifatida o‘rganadi”. Zamonaviy tilshunoslik sohalarida ushbu maydon metodi tadqiqotning maqsadlaridan kelib chiqib leksik maydon, konseptual maydon, leksik-semantik maydon, funksional-semantik maydon, sintaktik maydon va boshqa ko‘rinishlarda o‘rganilishi mumkin<sup>28</sup>.

Semantik maydon obyektiv lingvistik struktura bo‘lib, uning haqiqiy xotira jarayonlari harakati bilan tasdiqlanadi. Inson, odatda, unutilgan so‘zni xotirasida tiklashida, uning nomi bilan bo‘liq struktur qismini tashkil qiladigan obyekt xususiyatlarini tafakkurda aks ettiradi yoki sinonimik va antonimik qatorlarga murojaat etadi. Semantik maydonning lingvistik tabiatini tilning sistem-struktur shakllanishidagi xususiyatlari bilan belgilanadi.

Somatik birlıklar orqali gavdalanadigan “Yurak” leksik-semantik maydon uchun lug‘atlarni tanlash va tavsiflash davomida biz 4 leksik-semantik guruhni aniqladik. Bunda, leksik-semantik guruh (LSG) deganda kategorial-genetik sema (arxisemaning) umumiyligi va gap bo‘laklarining bir belgi orqali umumiyligi bilan birlashgan so‘zlar guruhini tushunamiz. Leksik-semantik maydon yaratish uchun “Qoraqalpoq tilining izohli lug‘ati” va ingliz tilidagi “Macmillan Dictionary”, “English Oxford Living Dictionaries”lar tanlab olindi. Birinchi navbatda ushbu tadqiqotni somatik birlıklarning frazeologizmlar tarkibidagi umumiy sonini aniqlashdan boshladik (Qarang: Jadval 1.3.1):

### 1.3.1-jadval


#### Qoraqalpoq va ingliz tillaridagi somatik komponentlarning frazeologizmlar tarkibida qo‘llanilish miqdori

№	Ingliz tili		Qoraqalpoq tili	
	Somatik komponent	Soni	Somatik komponent	soni
1	Heart	156	Júrek	110
2	Eye	121	Kóz	300
3	Head	96	Bas	219
4	Hand	149	Qol	147
5	Mouth	25	Awız	195
6	Foot/Leg	78	Ayaq	78
7	Tongue	28	Til	81
8	Ear	45	Qulaq	58
9	Nose	33	Murın	22
Jami		751		1210

Biz o‘rganayotgan materialda to‘qqiz somatik komponentli FB miqdori aniqlandi: “júrek”, “qol”, “bas”, “ayaq”, “kóz”, “qulaq”, “murın”, “til”, “awız”. Bu tillarda o‘rganilgan somatizm frazeologizmlarning umumiy soni 1961 tani tashkil qiladi. Ulardan 1210 tasi qoraqalpoqcha va 751 tasi inglizcha FB. Frazeologik birlıklarda har xil somatik strukturali qismalardan foydalanish shakli ayni emas, buni jadvaldan ko‘rish mumkin. Shunga qaramay biz qo‘llanilish miqdori yuqori bo‘lgan “yurak” komponentiga to‘xtalamiz.

<sup>28</sup> Швайко Я.В. Семантическая модель английских глаголов обучения: автореф. дис. канд. филол. наук: 10.02.04 / Я. В. Швайко. – Уфа, 2006. – 11 с.

### “Heart” somatizmining leksik-semantik maydoni



Ingliz tilida o‘rganilayotgan maydonga tegishli 154 leksik birlik, qoraqalpoq tilida esa 161 birlik tanlab olindi va ular quyidagi leksik-semantik guruhlarga bo‘lindi: anatomiya, sezgi, metaforik mazmun va ramziy o‘xshatish. So‘zlarni guruhlarga ajratishda yurakning faoliyati va muhim belgilariga asoslanildi. Har bir guruh lug‘atda ko‘rsatilgan so‘z turkumlariga ko‘ra ajratildi: sifatlar, otlar, ravishlar, fe’llar, frazeologik birliklar yoki idiomalar. “Heart” leksik-semantik maydon bilan rasmda tanishish mumkin (Qarang: Rasm 1.3.1):

Hozirgi paytda frazeologik birliklarni tasniflashning har xil usullari ishlab chiqilgan. Ulardan eng keng tarqalgan tasniflar semantik birlik va leksik tarkibi, shakllanishi, mavzuviy guruhlari, leksik-grammatik turlari hamda uslubiy xususiyatlari bo‘yicha amalga oshirilgan. Dissertatsiyamizda SFBning leksik-semantik maydonlarini o‘rganish bo‘yicha tasnifini ko‘rib chiqamiz.<sup>29</sup>

### “Júrek”(“Yurak”) somatizmining leksik-semantik maydoni



<sup>29</sup> Копыленко М.М., Попова З.Д. Очерки по общей фразеологии. Проблемы, методы, опыты. Воронеж: ВГУ, 1978. – 144 с.

“Júrek” (“Yurak”) leksik-semantik maydoni tarkibidagi frazeologik birliklarning tahlili asosida quyidagicha shakl hosil bo‘ldi: *Ayniw* (*aynimoq*), *úziliw* (*uzilmoq*), *qisiliw* (*qisilmoq*), *saziw* (*cho‘zmoq*), *soǵiw* (*urmoq*), *jalǵaw* (*bog‘lamoq*), *alqımǵa taqaliw* (*yaqin kelmoq*), *eziliw* (*ezilmoq*), *uriw* (*urmoq*), *tas* (*tosh*), *kiri joq* (*toza*), *qara* (*qora*), *ot* (*o‘t*), *túk* (*tuk*), *taza* (*orasta*), *qan qiliw* (*qon qilmoq*), *bos* (*bo‘sh*), *muzlaw* (*muzlamoq*), *alip ushiw* (*olib uchmoq*), *eziw* (*ezmoq*), *suwlaw* (*suvlamoq*), *jariliw* (*yorilmoq*), *ǵulgúla saliw* (*g‘ulg‘ula solmoq*), *ot bolip janiw* (*o‘t bo‘lib yonmoq*), *tiliw* (*tilmoq*), *qil siymaw* (*qil sig‘maslik*), *keń* (*keng*), *jutiw* (*yutmoq*), *arislan* (*arslon*), *qoyan* (*qo‘yon*).

Qo‘lanish miqdori bo‘yicha dastlabki besh mavqeni egallagan somatizmlar qoraqalpoq va ingliz tillarida teng taqsimlanadi hamda barcha sohalarda FBning yarmidan ko‘prog‘ini o‘z ichiga oladi. Bular qoraqalpoq va ingliz tillaridagi “júrek” (“yurak”), “kóz” (“ko‘z”), “bas” (“bosh”), “qol” (“qo‘l”), “awız” (“og‘iz”) komponentlari hisoblanadi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Ingliz va qoraqalpoq tillarida somatik frazemalarning leksik-semantik maydoni”** deb nomlangan bo‘lib, ushbu bobda frazeologik birliklarni to‘plash bo‘yicha ma’lum bir qarorga kelishda biz so‘z turkumlarining u yoki bu qismi bilan leksik-semantik, morfologik va sintaktik aloqa omillarini hisobga olamiz, shu bilan birga tahlilga tortilayotgan misollar somatik frazeologizmlar hisoblanadi.

Kategorial ma’no lekisk va frazeologik ma’nolarning bir qismi bo‘lib, frazeologik birlikning semantik tarkibida so‘zga qaraganda boshqacha tarzda ma’nolar orttiriladi. Albatta, frazeologizmlar so‘z birikmalarini tuzish sxemasiga ko‘ra oddiy so‘zlardan farqlanadi. Erkin sintaktik birikma tarkibida so‘z turkumining to‘rt asosiy qismlari, odatda asosiy komponent vazifasini bajaradi: fe’l, ot, sifat va ravish.

Qo‘llanilish miqdoriga ko‘ra dastlabki beshlikni egallagan somatizmlar ingliz va qoraqalpoq tillarida teng taqsimlanadi hamda barcha frazeologik shaklning yaqin shakli tarkibiga kiradi, shu bilan umumiy hajmning yarmidan ko‘prog‘ini o‘z ichiga oladi. Bular ingliz va qoraqalpoq tillarida “júrek” (“yurak”), “kóz” (“ko‘z”), “bas” (“bosh”), “qol” (“qo‘l”), “awız” (“og‘iz”) hisoblanadi.

Aksar tadqiqotchilar somatik frazeologizmlarning turli mavzuviy guruhlariga tavsif berishga katta e’tibor qaratadilar. Masalan, insonning xulq-atvor xususiyatlarini ifodalaydigan frazeologik birliklar<sup>30</sup> va insonning hissiyotlari, holatlarini bildiradigan frazeologik birliklar

Frazeologik birliklarning semantikasini qiyosiy o‘rganish, barqaror birikmalarini mavzuviy guruhlarga ajratmasdan o‘rganish, avvalo, ularning o‘sha guruhga tegishli bo‘lishi mumkin bo‘lgan ma’nolarini aniqlash kerak, ya’ni ichki shakli bo‘yicha o‘zaro ajratish fakti asosida ushbu tahlilni amalga oshirish mumkin. Bunda somatizm frazeologizmlarning statistik ko‘rsatkichlarini hisobga oligan holda ular quyidagicha

<sup>30</sup> Арсентьева Е.Ф. Сопоставительный анализ фразеологических единиц, выражающих характер человека, в английском и русском языках: автореф. дис. ... канд. филол. наук. М., 1986. ; Солодуб Ю.П. Русская фразеология как объект сопоставительного структурно-типологического исследования: на материале фразеологизмов со значением качественной оценки лица: диссертация ... доктора филологических наук : - Москва, 1985. Яранцев Р.И. Сборник упражнений по русской фразеологии: (эмоции и чувства человека) / Р. И. Яранцев, И. И. Горбачева; под ред. Р. И. Яранцева. - Москва: Изд-во МГУ, 1985. - 92 с.

mavzuviy guruhlarga ajratiladi (Qarang: 2.2.2 jadval).

## 2.2.2-jadval

### Ingliz va qoraqalpoq SF mavzuviy tasnifi

Komponent	Mavzuviy guruh
Júrek	Muhabbat, hayot, o'lim, kuch, xulq-atvor
Kóz	Mehr, qadr, mehnat, ishonch, yo'qotish
Bas	Mehnat, sezgi, mohir, intellekt
Qol	Mehnat, yordam, mahorat, o'g'irlik
Awız	Munosabat, aloqa, nasihat, mubolag'a
Til	Munosabat, aloqa, nasihat, izzat-hurmat
Heart	Muhabbat, hayot, o'lim, kuch, xulq-atvor
Eye	Mehr, qadr, mehnat, ishonch, yo'qotish
Head	Mehnat, sezgi, mohir, intellekt
Hand	Mehnat, yordam, mahorat, o'g'irlik
Mouth	Munosabat, aloqa, nasihat
Tongue	Munosabat, aloqa, nasihat
Ear	Mehnat, yordam, mahorat, o'g'irlik

Jadvaldagi ma'lumotlarga asoslanib aytish mumkinki, ayrim komponentlar bir-biri bilan bog'lanib, ayrim holatlarda bir xil mavzuviy guruhni tasvirlab kelmoqda. Ya'ni qiyoslanayotgan tillardagi somatik komponent orqali yasalgan frazeologik birliklar mavzuviy guruhlaridagi shakllanish xususiyatlari keyingi qismlarda to'liq ajratiladi.

